ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-2

RASHOD NURI GUNTEKINNING "CHOLIQUSHI" ASARIDA MUALLIM OBRAZI VA UNING TALQINI

Qudratovna Rushana

Samarqand davlat universiteti tasarrufidagi Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Davronova M.I.

Samarqand davlat universiteti tasarrufidagi Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institute professori, f.f.d.

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada turk adabiyotining yirik namoyandasi Rashod Nuri Gunteginning "Choliqushi" romanida o'qituvchi obrazi badiiy-estetik va ijtimoiy-ma'naviy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida asarning bosh qahramoni Farida (Choliqushi) obrazi turib, uning muallimlik faoliyati orqali jamiyatda ma'rifat tarqatish, yosh avlodni axloqiy va intellektual jihatdan tarbiyalashdagi o'rni ochib beriladi. Maqolada o'qituvchilik kasbining ma'naviy mohiyati, pedagog shaxsining jamiyatdagi ijtimoiy mavqei hamda ta'lim orqali shaxs kamolotiga erishish g'oyasi badiiy matn asosida tahlil etiladi. Shuningdek, romandagi boshqa muallim obrazlari misolida muallimlik kasbining ma'rifatparvarlik, fidoyilik va ma'suliyat kabi sifatlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida "Choliqushi" romanida ta'lim va tarbiya masalasi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida talqin qilingani ilmiy asosda xulosalanadi.

Kalit so'zlar. o'qituvchi obrazi, muallimlik kasbi, pedagogik ideal, ma'rifatparvarlik, badiiy talqin, Farida (Choliqushi), ijtimoiy-ma'naviy mas'uliyat, ta'lim va tarbiya, Rashod Nuri Guntegin.

РАШОД НУРИ ГЮНТЕКИН И ОБРАЗ УЧИТЕЛЯ В РОМАНЕ «ПТИЧКА ПЕВЧАЯ» И ЕГО ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация. В данной научной статье художественно-эстетический и социально-нравственный аспекты образа учителя анализируются на материале романа выдающегося представителя турецкой литературы Решада Нури Гюнтекина «Птичка певчая». В центре исследования находится образ главной героини произведения — Фериде (птичка певчая), через её педагогическую деятельность раскрывается её роль в распространении просвещения в обществе, а также в нравственном и интеллектуальном воспитании молодого поколения. В статье на основе художественного текста рассматриваются духовная сущность

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-2

профессии учителя, социальный статус личности педагога в обществе и идея достижения личностного совершенства через образование. Кроме того, на примере других образов учителей в романе освещаются такие качества профессии, как просветительство, самоотверженность и ответственность. В результате исследования научно обосновывается вывод о том, что в романе «Птичка певчая» проблемы образования и воспитания интерпретируются как один из основных факторов общественного развития.

Ключевые слова: образ учителя, профессия педагога, педагогический идеал, просветительство, художественная интерпретация, Фериде (Птичка певчая), социально-нравственная ответственность, образование и воспитание, Решад Нури Гюнтекин.

THE IMAGE OF THE TEACHER AND ITS INTERPRETATION IN RASHAD NURI GUNTEKIN'S NOVEL "ÇALIKUŞU"

Abstract. This scholarly article analyzes the artistic-aesthetic and socio-spiritual aspects of the image of the teacher in the novel Çalıkuşu by the prominent representative of Turkish literature, Rashad Nuri Guntekin. The study focuses on the protagonist of the novel, Feride (Çalıkuşu), and reveals her role in spreading enlightenment within society and in morally and intellectually educating the younger generation through her teaching activities. Based on the literary text, the article examines the spiritual essence of the teaching profession, the social status of the teacher in society, and the idea of achieving personal development through education. Furthermore, through the analysis of other teacher characters in the novel, such qualities of the profession as enlightenment, devotion, and responsibility are highlighted. The research concludes, on a scholarly basis, that in the novel Çalıkuşu, the issues of education and upbringing are interpreted as one of the key factors of social progress.

Keywords: image of the teacher, teaching profession, pedagogical ideal, enlightenment, literary interpretation, Feride (Çalıkuşu), socio-spiritual responsibility, education and upbringing, Rashad Nuri Guntekin.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining fundamental omillaridan biri sifatida ta'lim tizimi va unda muallimlik kasbining tutgan o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Atrof-muhit va ijtimoiy hayotga nazar tashlar ekanmiz, o'qituvchilik faoliyati eng ulug', mas'uliyatli va mashaqqatli kasblardan biri bo'lib, jamiyatning intellektual va ma'naviy poydevorini mustahkamlovchi tayanch kuch ekanligiga amin bo'lamiz. Yosh avlodning ilm-fan egallashi orqali ijtimoiy faollik, shaxsiy kamolot va kelajak

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-2

istiqbollari shakllanib boradi. Shu jihatdan qaraganda, muallimlik kasbi nafaqat kasbiy faoliyat turi, balki yuksak ma'naviy missiya sifatida namoyon bo'ladi.

Asosiy qism. Asrlar davomida jahon va milliy adabiyotda muallim obrazi badiiy-estetik ideal darajasida tasvirlanib, pedagog shaxsining jamiyatdagi ijtimoiy mavqei yozuvchilar tomonidan yuksak badiiy mahorat bilan ochib berilgan. Jahon adabiyotida o'zining yetuk ijodiy salohiyati bilan ajralib turgan adib Rashod Nuri Guntegin "Choliqushi" romanida muallimlarning fidoyiligi, pedagogik mas'uliyati hamda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual jihatdan tarbiyalashdagi o'rnini keng qamrovda yoritadi.

Asar markazida joylashgan Farida (Choliqushi) obrazi muallimlik kasbining badiiy timsoli sifatida talqin etiladi. U o'qituvchilik faoliyatini dastlab hayotiy zarurat va moddiy ehtiyoj sabab boshlagan bo'lsa-da, voqealar rivoji jarayonida bu kasb uning shaxsiy dunyoqarashi va hayotiy qadriyatlariga aylana boradi. Roman kompozitsiyasida Faridaning bolalik xotiralari retrospektiv usulda berilib, uning ruhiy shakllanish bosqichlari izchil yoritiladi.

Faridaning fransuz tili muallimasi Aleksi opa tomonidan berilgan "Hayotidagi ilk xotiralari" mavzusidagi insho topshirig'i badiiy asarda qahramonning ichki monologiga turtki bo'lib xizmat qiladi. Ushbu epizod orqali Faridaning murakkab ruhiy kechinmalari, oilaviy muhit va tarbiyaviy sharoit uning shaxs sifatida kamol topishiga qanday ta'sir ko'rsatgani ochib beriladi. Onasining erta vafoti va otasining xizmat majburiyatlari tufayli uzoqligi Faridaning tarbiyasida buvisi va xolalarining muhim ijtimoiy-pedagogik rolini belgilaydi.

Faridaning Zaynilar qishlog'iga muallim sifatida yuborilishi romandagi asosiy ijtimoiy-madaniy konfliktlarni yuzaga chiqaradi. Dastlab maktab binosining nosozligi, qishloq aholisining yosh muallimaga nisbatan ishonchsiz munosabati pedagog shaxsining jamiyat tomonidan qabul qilinish jarayonini murakkablashtiradi. Ya'ni Farida kelib joylashgan musofirxonaning qari xizmatkori Xoji Xalfa ham Choliqushining qishloq bolalariga yetarli darajada dars bera olishiga ishonmaydi va u: "Qani ko'raylikchi, Xoyg'onush, xo'jonim oldida yuzimni qora qilsang, yedirgan nonim, ichirgan namagimni burningdan chiqarib olaman", - deya Faridaga do'q aralash murojaat etadi. Yana gapini davom ettiradi: "Qizdan bir-ikki ko'paytirish va bo'lish masalalaridan so'rab bo'lgach, Payg'ambarlar tarixi" deb atalgan bir rasmli kitobni ochdim. Ko'zim Iso va cho'qintirishga doir parchaga tushdi va Faridadan uni so'radim.

Farida esa javob berish jarayonida Xoji Xalfani shunday deya tasvirladi: "Xoji Xalfa so'zlarimni eshitib ko'zlari olaydi, boshida sochi bo'lmagani uchun qoshlarining

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

tuki dukkaydi. Xristian dini haqidagi bilimim unga mo‘jizaday tuyuldi” va Xoji Xalfa: “Bu qanday ish- a! Bir musulmon qizi mening dinimni poplarimizdan ham yaxshiroq bilsa-ya! Men seni bir shunchaki muallima deb yurgan ekanman, sen esang aslida mo‘tabar olima ekansan”, - deb Faridaga yanada ishonch bildiradi. Biroq Faridaning tashabbuskorligi, kasbiy fidoyiligi va bolalarga nisbatan mehr-muhabbati natijasida u qisqa fursatda ta’lim muhitini shakllantirishga erishadi. Maktabni obodonlashtirish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish Farida obrazining pedagogik ideal darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

Qishloq oqsoqolining Faridaga bo‘lgan munosabatidagi ijobiy o‘zgarish ijtimoiy ongda muallimlik kasbining haqiqiy qadriyat sifatida anglanishini ifodalaydi. Ushbu holat pedagog shaxsining jamiyatdagi ijtimoiy mavqei bilim, fidoyilik va ma’naviy yetuklik asosida shakllanishini tasdiqlaydi. Keyinchalik Faridaning boshqa qishloqqa fransuz tili mutaxassisi sifatida yuborilishi uning kasbiy kompetensiyasi va pedagogik salohiyatining e’tirofi sifatida talqin etiladi. Asarda Zohid Afandi, Umarbek va Shayx Yusuf kabi muallim obrazlari orqali ta’lim tizimining ko‘p qirrali ijtimoiy funksiyalari yoritiladi. Ushbu pedagoglar jamiyatda nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi yetakchi shaxslar sifatida tasvirlanadi. Natijada, romanda muallimlik kasbi jamiyatni ma’naviy tanazzuldan saqlovchi asosiy omil sifatida badiiy talqin qilinadi.

Xulosa. “Choliqushi” romanida muallimlik kasbi yuksak ijtimoiy va ma’naviy mas’uliyat yuklangan faoliyat turi sifatida talqin etiladi. Asar g‘oyaviy asosida ilm-ma’rifat orqali shaxs va jamiyat kamolotiga erishish konsepsiyasi ilgari suriladi. Farida obrazi orqali muallif ilmli, dono va fidoyi inson har qanday ijtimoiy sharoitda ham jamiyatda o‘z munosib o‘rnini topishini badiiy jihatdan asoslab beradi. Xalq donishmandligida ifodalangan “Ilmli kishi xor bo‘lmas, do‘st-dushmanga zor bo‘lmas” degan hikmat romanning g‘oyaviy mazmunini yanada mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rashod Nuri Guntekin. Choliqushi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
2. Uz.wikipedia.org.